

O'zbekiston Respublikasida iste'mol narxlari indeksi (INI)

2026-yil avgust oyi

Ma'lumotlar jadvallariga havolalar:

MIIT – 2018 bo'limlari bo'yicha iste'mol narxlari indeksi

O'zbekiston bo'yicha barcha tovar va xizmat narxlari indeksi, o'tgan oyga nisbatan


- I. O'zbekiston bo'yicha yig'ma INI
- II. Hududlar kesimida yig'ma INI
- III. O'zbekiston bo'yicha asosiy guruhlardagi INI
- IV. Yig'ma INI o'zgarishiga MIIT – 2018 bo'limlarining ta'sir tuzilmasi
- V. Geometrik Yang formulasi bo'yicha INI (tahliliy maqsadlar uchun)
- VI. Uslubiy ma'lumotlar
- VII. Foydali havolalar

I. O'zbekiston bo'yicha yig'ma INI

2026-yil avgust oyida yig'ma INIning oylik ko'rsatkichi **100,2 %** (2025-yil avgust oyida **100,4 %**)ni, o'tgan yilning dekabriga nisbatan **103,4 %** (2025-yil avgust oyida **104,5 %**)ni, yillik nisbatda **106,2 %** (2025-yil avgust oyida **108,8 %**)ni tashkil etdi.

Meva-sabzavot mahsulotlari narxlarining o'zgarishini hisobga olmaganda, yig'ma INI oy davomida **100,2 %** (2025-yil avgust oyida **100,4 %**)ni, 2026-yilning yanvar-avgust oylarida **104,9 %** (2025-yil yanvar-avgust oylarida **106,1 %**)ni tashkil etdi. Yillik hisobda esa bu ko'rsatkich **106,6 %** (2025-yil avgust oyida **109,6 %**)ga teng bo'ldi.

O'zbekiston bo'yicha INI dinamikasi, o'sish (pasayish) sur'ati %da



Quyida 2026-yil avgust oyida MIIT – 2018 bo'limlari bo'yicha asosiy tovar va xizmatlar narxlarining o'zgarishi keltirilgan:

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar bo'limi

Asosiy oziq-ovqat mahsulotlari orasida bir oyda narxlar quyidagi turlar bo'yicha oshgani qayd etildi: guruch va guruch oqshog'i – **2,2 %**ga (2025-yil avgust oyiga nisbatan **-4,1 %**), grechka – **1,1 %**ga (2025-yil avgust oyiga nisbatan **+8,1 %**), tuxum – **0,8 %**ga (2025-yil avgust oyiga nisbatan **+12,8 %**), un – **0,5 %**ga (2025-yil avgust oyiga nisbatan **+5,9 %**), qo'y go'shti – **0,7 %**ga (2025-yil avgust oyiga nisbatan **+20,0 %**), suyaksiz mol go'shti – **0,7 %**ga (2025-yil avgust oyiga nisbatan **+18,8 %**), suyakli mol go'shti – **0,4 %**ga (2025-yil avgust oyiga nisbatan **+16,2 %**), shuningdek, tovuq boldiri, son va tovuqning boshqa qismlari narxlarining **0,7 %** (2025-yil avgust oyiga nisbatan **+1,2 %**)ga o'sishi kuzatildi.

Oy davomida shakar – **0,6 %** (2025-yil avgust oyiga nisbatan **+1,6 %**)ga, sut – o'rtacha **0,3 %** (2025-yil avgust oyiga nisbatan **+5,0 %**)ga, paxta yog'i – **0,1 %** (2025-yil avgust oyiga nisbatan **+6,2 %**)ga narxlarining pasayishi kuzatildi.

Mavsumiy omil meva-sabzavot mahsulotlari narxlarining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatdi. Bir oy davomida asosiy meva-sabzavot mahsulotlaridan uzum – **10,9 %**ga (2025-yil avgust oyiga nisbatan **-2,0 %**), bulg'or qalampiri – **9,2 %**ga (2025-yil avgust oyiga nisbatan **+9,8 %**), olma – **7,2 %**ga (2025-yil avgust oyiga nisbatan **+9,1 %**), nok – **6,0 %**ga (2025-yil avgust oyiga nisbatan **-13,3 %**), baqlajon – **5,5 %**ga (2025-yil avgust oyiga nisbatan **-31,8 %**), karam – **4,9 %**ga (2025-yil avgust oyiga nisbatan **-3,8 %**) va kartoshka narxlari – **3,3 %**ga (2025-yil avgust oyiga nisbatan **-15,2 %**) arzonlashdi. Sabzi – **9,2 %**ga (2025-yil avgust oyiga nisbatan **-2,3 %**), tarvuz – **7,5 %**ga (2025-yil avgust oyiga nisbatan **-11,2 %**), piyoz – **6,2 %**ga (2025-yil avgust oyiga nisbatan **-9,2 %**) va sitrus mevalar narxlari – **1,6 %**ga (2025-yil avgust oyiga nisbatan **+9,2 %**) qimmatlashdi.

Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari bo'limi

Joriy yilning avgust oyida asosiy turdagi kommunal xizmatlar tariflarida o'zgarishlar kuzatilmadi. Oy davomida ijaraga olingan turar joylar uchun amaldagi ijara haqi **0,4 %** (2025-yil avgust oyiga nisbatan **+4,2 %**)ga, turar joylarga xizmat ko'rsatish, ularni ta'mirlash va qo'riqlash xizmatlari esa **0,3 %** (2025-yil avgust oyiga nisbatan **+5,8 %**)ga oshdi.

Sog'liqni saqlash bo'limi

2026-yilning avgust oyida kuzatuvdagi dori vositalari o'rtacha **0,2 %** (2025-yilning avgust oyiga nisbatan **+2,3 %**)ga, immunizatsiya xizmatlari **0,2 %** (2025-yilning avgust oyiga nisbatan **+2,8 %**)ga, ko'z uchun yordamchi mahsulotlar esa **0,6 %** (2025-yilning avgust oyiga nisbatan **+1,2 %**)ga arzonlashdi.

Transport bo'limi

Oy davomida benzin uchun o'rtacha iste'mol narxlari darajasi **1,9 %**ga (2025-yil avgust oyiga nisbatan **+20,2 %**) oshdi. Bunda, 2026-yil avgust oyida benzinning AI-92 markasi – **1,1 %**ga, AI-95 markasi – **4,9 %**ga, AI-98 va AI-100 markalari esa – **6,7 %**ga qimmatlashdi. Propaning narxi oy davomida **5,8 %**ga (2025-yil avgust oyiga nisbatan **+41,4 %**) qimmatlashdi, metan narxi joriy yilning iyul oyi darajasida saqlanib qoldi (2025-yil avgust oyiga nisbatan **+10,3 %**).

Ma'lumot uchun: tasdiqlangan metodologiyaga muvofiq, avtomobillar uchun benzin va gaz yoqilg'isining o'rtacha narxlarini hisoblashda soliq organlarining ma'lumotlar bazasidan 1-avgustdan 25-avgustgacha bo'lgan davr uchun olingan ma'lumotlar qo'llanildi. Benzinning o'rtacha narxini aniqlashda 898 ta obyekt bo'yicha 21 753 ta, propan narxini aniqlashda 383 ta obyekt bo'yicha 5 825 ta, metan narxini aniqlashda esa 566 ta obyekt bo'yicha 10 554 ta narx kotirovkalaridan foydalanildi.

AI-92 benzinining bir litri narxi 10 500 so'mdan 16 400 so'mgacha, AI-95 12 500 so'mdan 20 000 so'mgacha, AI-98 va AI-100 16 000 so'mdan 28 000 so'mgacha, hamda propan uchun yuqori narx chegarasi bir litr uchun 8 800 so'mni tashkil etdi.

Yo'lovchi tashish transporti xizmatlari orasida joriy yilning avgust oyida ichki (oy davomida **+0,1 %**) va xalqaro (oy davomida **+1,7 %**) yo'nalishlar bo'yicha aviaqatnovlar tariflarining o'sishi qayd etildi, bu yoqilg'i narxining oshishi va yevroning so'mga nisbatan o'zgarishi bilan bog'liq. Surxondaryo, Jizzax va Navoiy viloyatlarida, shuningdek, Toshkent shahrida shaharlararo avtobusda yo'l haqi va shu kabi tashishlar narxlari qimmatlashdi. Respublika bo'yicha avtomobil transportida shaharlararo yo'lovchi tashish narxi o'rtacha **0,6 %** (2025-yil avgust oyiga nisbatan **+7,3 %**) oshdi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar bo'limi

Oy davomida narxlarning o'sishi quyidagi ta'lim xizmatlari turlarida qayd etildi: xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tashrif buyurish – **0,3 %** (2025-yil avgust oyiga nisbatan **+3,2 %**), repetitorlik – **0,2 %** (2025-yil avgust oyiga nisbatan **+5,0 %**), chet tili kurslarida o'qish – **0,1 %** (2025-yil avgust oyiga nisbatan **+4,4 %**).

Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar bo'limi

Ushbu bo'limda qisqa muddatli INI **100,0 %**lik ko'rsatkichdan pastga tushdi. Joriy yilning avgust oyida pul o'tkazmalari uchun to'lovlar bir oy oldingiga nisbatan **1,4 %**ga past bo'ldi, bunga so'mning AQSH dollari va Rossiya rubliga nisbatan mustahkamlanishi ta'sir ko'rsatdi.

2026-yilning avgust oyida MIIT – 2018 bo'limlari bo'yicha INI, %da

	Bo'lim nomi	2026-yilning iyuliga nisbatan	2025-yilning dekabriga nisbatan	2025-yilning avgustiga nisbatan
I.	Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar	100,4	101,7	106,2
II.	Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari	100,6	104,9	106,7
III.	Kiyimlar va poyabzallar	100,1	101,7	103,0
IV.	Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari	100,0	110,0	111,9
V.	Uy-ro'zg'or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko'rsatish	100,1	102,1	102,7
VI.	Sog'liqni saqlash	99,9	102,3	103,4
VII.	Transport	100,4	105,2	107,1
VIII.	Axborot va aloqa	99,9	102,6	105,9
IX.	Dam olish, sport va madaniyat	100,2	102,4	103,5
X.	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	100,1	100,6	101,5
XI.	Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	100,3	105,3	107,2
XII.	Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar	99,8	143,7	143,0
XIII.	Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar	100,2	104,5	106,6

II. Hududlar kesimida yig'ma INI

Hududlar kesimida qisqa muddatli va yillik INI bo'yicha o'rtacha respublika ko'rsatkichidan keskin farq qayd etilmadi.

2026-yilning avgust oyida hududlar bo'yicha INI, %da

	Hududlar	2026-yilning iyuliga nisbatan	2025-yilning dekabriga nisbatan	2025-yilning avgustiga nisbatan
	Qoraqalpog'iston Respublikasi	100,2	103,2	106,2
	viloyatlar:			
	Andijon	100,2	103,3	106,5
	Buxoro	100,2	103,3	105,7
	Jizzax	100,2	103,4	106,3
	Qashqadaryo	100,2	103,6	106,3
	Navoiy	100,2	103,4	106,2
	Namangan	100,3	103,3	106,1
	Samarqand	100,3	103,6	106,3
	Surxondaryo	100,3	103,2	105,7
	Sirdaryo	100,2	102,7	105,2
	Toshkent	100,2	103,5	106,1
	Farg'ona	100,3	103,9	106,6
	Xorazm	100,3	103,6	106,4
	Toshkent sh.	100,3	103,5	106,8

III. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy guruhlardagi INI

2026 yilning avgust oyida tovarlar uchun qisqa muddatli INI **100,3 %**ni (2025-yil avgust oyida **100,5 %**), yil boshidan buyon **103,0 %**ni (2025-yilning yanvar-avgustida **102,2 %**) va yillik nisbatda **106,1 %**ni (2025-yil avgust oyida **106,6 %**) tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari uchun INI oy davomida **100,4 %** (2025-yil avgust oyida **100,6 %**), 2026-yil boshidan buyon **101,9 %** (2025-yilning yanvar-avgustida **101,3 %**) va yillik nisbatda **106,2 %** (2025-yilning avgust oyida **106,7 %**) darajasida qayd etildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar uchun INI **100,2 %** (2025-yil avgust oyida **100,3 %**), yil boshidan **104,3 %** (2025-yilning yanvar-avgustida **103,6 %**) va yillik nisbatda **105,9 %** (2025-yilning avgust oyida **106,6 %**)ni tashkil etdi.


Xizmatlar bo'yicha oylik ko'rsatkich **100,1 %** (2025-yil avgust oyida **100,3 %**), yil boshidan **104,7 %** (2025-yilning yanvar-avgustida **112,0 %**) va yillik nisbatda **106,4 %** (2025-yilning avgust oyida **116,2 %**) ko'rsatkichga ega bo'ldi.

Asosiy guruhlar bo'yicha INI dinamikasi, o'sish (pasayish) sur'ati %da


o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga
nisbatan



o'tgan yilning mos
oyiga nisbatan



IV. Yig'ma INI o'zgarishiga MIIT – 2018 bo'limlarining ta'sir tuzilmasi

2026-yilning avgust oyida qisqa muddatli yig'ma ko'rsatkichning o'zgarishiga "Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar" bo'limidagi narxlarning o'zgarishi sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ko'rsatilgan bo'limda o'rtacha narxlar darajasining oshishi hisobiga oylik yig'ma ko'rsatkich **0,16 f.d.**ga yuqori bo'ldi. "Transport" bo'limidagi narxlarning o'zgarishi yig'ma INIn **0,04 f.d.**ga oshirdi. "Sog'liqni saqlash" bo'limida o'rtacha narxlar darajasining pasayishi ushlab turuvchi omil bo'lib, yig'ma INIn **0,01 f.d.**ga pasaytirdi. Qolgan bo'limlarning ta'siri sezilarli bo'lmadi (umumiy hisobda **+0,05 f.d.**).

MIIT – 2018 bo'limlarining 2026-yil avgust oyida yig'ma INI o'zgarishiga ta'siri, f.d.

o'tgan oyga nisbatan

I. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar	0,16
II. Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari	0,00
III. Kiyimlar va poyabzallar	0,01
IV. Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari	0,00
V. Uy-ro'zg'or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko'rsatish	0,01
VI. Sog'liqni saqlash	-0,01
VII. Transport	0,04
VIII. Axborot va aloqa	0,00
IX. Dam olish, sport va madaniyat	0,01
X. Ta'lim sohasidagi xizmatlar	0,00
XI. Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	0,01
XII. Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar	0,00
XIII. Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar	0,01

Jami ta'sir

+0,24 f.d.

o'tgan yilning dekabriga nisbatan

I. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar	0,67
II. Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari	0,03
III. Kiyimlar va poyabzallar	0,19
IV. Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari	1,14
V. Uy-ro'zg'or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko'rsatish	0,13
VI. Sog'liqni saqlash	0,12
VII. Transport	0,52
VIII. Axborot va aloqa	0,08
IX. Dam olish, sport va madaniyat	0,06
X. Ta'lim sohasidagi xizmatlar	0,02
XI. Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	0,10
XII. Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar	0,12
XIII. Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar	0,23

Jami ta'sir

+3,41 f.d.

2026-yilning yanvar–avgust oylarida yig'ma INI o'sishiga "Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari", "Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar" hamda "Transport" bo'limlaridagi narxlar o'zgarishi eng katta hissa qo'shdi (umumiy hisobda **+2,33 f.d.** yoki umumiy ta'sirning **68,3 %**). Boshqa bo'limlarning jami hissasi **+1,08 f.d.**ni (umumiy ta'sirning **31,7 %**) tashkil etdi.

V. Geometrik Yang formulasi bo'yicha INI (tahliliy maqsadlar uchun)

2026-yil yanvar oyidan boshlab Milliy statistika qo'mitasi geometrik Yang formulasi asosida qo'shimcha INI shakllantirib kelmoqda. **Mazkur indeks faqat tahliliy maqsadlarda qo'llaniladi va yuqorida e'lon qilingan asosiy INIning o'rnini bosmaydi yoki unga muqobil hisoblanmaydi** (batafsil ma'lumot "Uslubiy ma'lumotlar" VI bo'limida keltirilgan).

2026-yil avgust oyida geometrik Yang formulasi bo'yicha oylik INI **100,2 %**ni, 2025-yil dekabriga nisbatan **102,3 %**ni tashkil etdi.

2026-yil avgust oyi uchun geometrik Yang formulasi bo'yicha INI, %da (TAHLILIY MAQSADLAR UCHUN)

Bo'lim nomi	2026-yilning iyuliga nisbatan	2025-yilning dekabriga nisbatan
I. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar	100,4	99,6
II. Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari	100,5	104,9
III. Kiyimlar va poyabzallar	100,1	101,7
IV. Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari	100,0	108,7
V. Uy-ro'zg'or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko'rsatish	100,1	102,1
VI. Sog'liqni saqlash	99,9	102,3
VII. Transport	100,4	105,0
VIII. Axborot va aloqa	99,9	102,5
IX. Dam olish, sport va madaniyat	100,2	102,3
X. Ta'lim sohasidagi xizmatlar	100,1	100,5
XI. Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	100,3	105,2
XII. Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar	99,7	124,6
XIII. Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar	100,2	104,5

VI. Uslubiy ma'lumotlar

2026-yilning yanvaridan boshlab Iste'mol narxlari indeksining oylik hisob-kitobi **517** ta tovar va xizmat turiga (2025-yilda – 510 ta) asoslanadi, shundan **419** tasi tovar va **98** tasi xizmatlardir. Kuzatuvda oy davomida **2 mlndan ortiq** narx kotirovkalari qamrab olingan.

INI hisob-kitoblari (1) salmoq vaznlarini shakllantirishga xizmat qiladigan aholi xarajatlarning tuzilmasi to'g'risidagi ma'lumotlar (uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuv ma'lumotlari) va (2) iste'mol narxlari o'zgarishlari to'g'risidagi ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar Nukus shahri, Toshkent shahri, viloyatlar markazlari hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy, geografik o'rnini va iste'mol bozorining tovar va xizmatlar bilan to'yinganlik darajasini hisobga olgan holda tanlab olingan shahar va tuman markazlaridan to'planadi.

Tovarlar va xizmatlar narxlari va tariflari kuzatuv turg'un savdo va xizmat ko'rsatish obyektlarida ham, ko'chma savdoda ham (palatka, rastalar v.b.) tanlanma asosida o'tkaziladi.

Hisob-kitoblarda quyidagi manbalardan olingan narx o'zgarishi haqidagi ma'lumotlar qo'llaniladi:

(1) CAPI¹ texnologiyasiga asoslangan ma'lumotlar (chakana savdo do'konlariga tashrif buyurib narxlarni ro'yxatdan o'tkazish);

(2) ma'muriy tranzaksion ma'lumotlar (soliq organlari ma'lumotlar bazasidan onlayn-kassa mashinalari chek ma'lumotlari);

(3) eStat² tizimi orqali xizmat ko'rsatuvchi provayderlardan va chakana sotuvchilardan olingan ma'lumotlar (API³ /Excel formatida);

(4) web scraping⁴ texnologiyasiga asoslangan va turli xil onlayn manbalar (veb-sayt ma'lumotlari)dan olingan narxlar;

(5) CATI⁵ texnologiyasiga asoslangan ma'lumotlar (telefon orqali so'rovnomalar).

Narxlarni yig'ish har oyning 1-sanasidan 25-sanasigacha bo'lgan davrda amalga oshiriladi. Narxlarni to'plashning har bir usuli va manbasi uchun alohida grafik belgilangan bo'lib, u xalqaro standartlar tavsiyalari asosida tayyorlangan va 2026-yil yanvar oyidan joriy etilgan yangilangan metodikada mustahkamlab qo'yilgan.

XVJ ekspertlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasiga modifikatsiyalangan arifmetik Yang formulasini joriy etish qisqa muddatli istiqbolda tavsiya etilgan.

Tahliliy maqsadlar va respublikadagi inflyatsion jarayonlarni kompleks baholash uchun 2026-yil yanvardan boshlab **geometrik Yang formulasining muqobil variantidan foydalanib, qo'shimcha narx indeksini shakllantirish boshlandi**. Ushbu hisob-kitoblar natijalari doimo "Tahliliy maqsadlar uchun" degan belgi bilan e'lon qilib boriladi.

Modifikatsiyalangan arifmetik Yang formulasi asosida shakllangan INI iste'mol sektoridagi inflyatsiyaning asosiy ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Geometrik Yang formulasi bo'yicha hisoblangan INI esa tahlil maqsadlari uchun qo'shimcha ko'rsatkich sifatida qo'llaniladi.

XVJ mutaxassislari tomonidan o'rta muddatli istiqbolda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasiga geometrik Yang formulasini joriy etish tavsiya etilgan.

Metodologiyaga kiritilgan va 2026-yil yanvar oyidan kuchga kirgan o'zgartirishlar "O'zbekiston Respublikasida narx indekslarini shakllantirish metodologiyasidagi asosiy o'zgarishlar to'g'risida"gi press-relizda batafsil yoritilgan.

VII. Foydali havolalar

[Iste'mol narxlari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi Maqsadlar bo'yicha individual iste'mol tasniflagichi \(O'R MIIT – 2018\)](#)

[Iste'mol narxlari indeksi bo'yicha qo'llanma: konsepsiya va uslubiyat \(2020\)](#)

Chop etish uchun mas'ul:
Narxlar statistikasi boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent, Mustaqillik
shoh ko'chasi, 63
Kontaktlar: info@stat.uz
Tel: +998 71 203-80-00 (1100, 1101)



¹ CAPI (Computer Assisted Personal Interviewing) – narxlar statistikasida bu ma'lumot to'plash usuli bo'lib, unda registratorlar savdo va xizmat ko'rsatish obyektlariga bevosita borib, narxlarni qog'oz anketa o'rniga planshet orqali qayd etadilar.

² O'zbekistonda statistik hisobotlarni elektron shaklda yig'ishga mo'ljallangan avtomatlashtirilgan axborot tizimi.

³ API (Application Programming Interface) – bu turli dasturlar o'zaro muloqot qilishi va ma'lumot almashishiga imkon beruvchi dasturiy interfeys, qoidalar, buyruqlar va vositalar majmuasidir.

⁴ Veb-resurs sahifalaridan ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda ajratib/yig'ib olish texnologiyasi.

⁵ CATI (Computer Assisted Telephone Interviewing) – bu kompyuter yordamida telefon orqali intervyu o'tkazishga asoslangan ma'lumot to'plash usuli.